

This is not registered version of TotalDocConverter

Katta shahar pastki bozor qizidi. Qizning kampirga pastakkina kursichalarda o'tiradilar, ermak qilib, savdo qiladilar. Oldilarida turfa buyumlar yoyilgan, rang-barang pufaklardan tortib, banka qopqoqlari-yu, chinni idishlar...

Birov paypoq to'qigancha oldidagi eski qo'g'irchoq, sirli kastyulga ahyon-ahyon o'tib qolgan o'tkinchilarni chorlaydi. Birovi oldidagi narsalarni uyoq-buyoqqa surib qo'ygan bo'ladi. Birov beparvo, qo'llarini chalmashtirganicha o'tiradi.

Shu yerdan o'tib ketayotgan qiz beixtiyor to'xtab qoldi. Ana shu eski buyumlar orasida bir guldun uning e'tiborini tortdi. Qiz engashib qo'lga guldonni oldi. Billur guldun nafisligi, bezaklari ko'zini yayratdi. Asta barmoqlari bilan guldonni chertdi.

Guldondan ko'ngil tubiga borib tegadigan ajib nozik ovoz taraldi.

- Ehtiyot bo'l, qizim, - dedi qotmagina kampir unga yuzlanib. Aftidan, kampir idish egasi bo'lsa kerak, kuyunchaklik bilan qo'shib qo'ydi: вЂ”Bunaqa billur hozir topilmaydi. Chexlarniki. O'ho', buni bir paytlar erim olib kelgandi. Shunday qimmat, shunday qimmat... Rosa koyigandim o'ziniyam

Qiz guldonni qo'lida avaylab tomosha qildi. Billur quyoshda jilva qildi.

- Qancha deyapsiz? - so'radi qiz guldonni qo'lidan qo'ymay.

Kampir yutingancha indamay qoldi.

- Qancha? - qiz uni eshitmadi, deb o'ylab savolini takrorladi.

- Matveevna, senga gapiryapti, - kampirning yonida o'tirgan hamrohi uni turtib dedi. - Aytsang-chi narxini.

Kampir go'yoki guldonni qaytib olmoqchiday, beixtiyor qo'llarini qizga silkidi.

- Guldonni rostdan olmoqchimisan?

- Olmasam, so'rarmidim, buvijon, - dedi qiz kulib.

- Bu guldun ne-ne baxtli kunlarni ko'rmagan... - kampir xayolga toldi.- U baxt keltiradi.

- Mayli, baxt keltira qolsin, shuning uchun ham sotib olmoqchiman-da, - dedi qiz yana miyig'ida kulib. - Axir qancha narxi?

Kampir o'ylanib qoldi.

- Klava, savdosi kelganda, nega jim o'tiribsan, aytsang-chi?

Kampir qizga yuzlandi:

- Guldonni qaytib bera qoling, qizim.

Qiz hayron bo'lib qoldi. Atrofdagilar ham unga taajjublanib qarashdi.

- Sotishdan aynidingizmi? Yo puli yetmaydi deb o'ylayapsizmi? - dedi qiz jon-dili bilan.

- Yo'q, yo'q....

- Jinnimisan, Matveevna, nega bunday qilyapsan? - dedi unga hamrohi kuyunib.

- Guldonni sotmoqchi emasman... fikrimdan qaytdim.

- Ie, nega? - dedi qiz ajablangandan-ajablanib. - Sotmoqchi bo'lmasangiz, nega olib chiqdingiz?

Atrofdagilar ham chuvillashib ketishdi.

- Bera qoling... - kampir dedi qizga yolvorib, go'yoki u guldonni olib, qochib ketadiganday.

Qiz noiloj istamaygina guldonni unga uzatdi.

Kampir guldonni shosha-pisha olib, qog'ozga o'radi.

Qiz orqasiga qaray-qaray nari ketdi.